

## TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI RESTAVRATSIYA VA KONSERVATSIYA QILISH: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR



**Suxrob Qayumov**  
Mustaqil izlanuvchisi  
O'z RFA O'zbekiston tarixi davlat muzeyi

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-06-04>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy san'at asarlarini konservatsiya va restavratsiya qilish tarixi hamda tadrijiy rivojlanish omillari tahlil qilingan. Shuningdek, restavrator olimlar faoliyati o'r ganilgan. O'zbekistonda ilk restavratsiya laboratoriyanining tashkil etilishi va restavratsiya qilingan dastgohli rangtasvir asarlari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** konservatsiya, restavratsiya, rang-tasvir, ilmiy laboratoriya, restavrator olimlar, dastgohli asarlar.

**Аннотация:** В даннос статье проанализированы история консервации и реставрации произведений изобразительного искусства, а также факторы его постепенного развития. Также изучена деятельность реставраторов и организация первой реставрационной лаборатории в Узбекистане. Проанализированы восстановленные произведения изобразительного искусства.

**Ключевые слова:** консервация, реставрация, живопись, научная лаборатория, реставрационные работы.

**Abstract:** This article analyzes the history of conservation and restoration of works of fine art, as well as the factors of its gradual development. The activities of restorers and the organization of the first restoration laboratory in Uzbekistan were also studied. The restored works of fine art are analyzed.

**Keywords:** conservation, restoration, color vision, scientific laboratory, restorers, painting.

O'rta asrlarda Venetsiyada Benedetto Dandolo, Florentsiyada Kozimo Vekkio, Rimdag'i papa Pavel II, Yuliy II kabilarning xususiy kolleksiyalari asosida boy eksponatlarga ega muzeylar tashkil etilgan. Ular ba'zida turar joy binolariga, ba'zida esa maxsus qurilgan binolarda saqlangan. Saqlash va restavratsiya qilish uslublarini mutaxassislar yaxshi bilmaganliklari sababli asarlar ko'p talafot ko'rgan. Rossiyada qadimgi rus dastgohli va mahobatli rangtasvir asarlari ishlash va ta'mirlash X-XII asrlarda, moybo'yoqda asarlarni ishlash XVII asrlarda boshlangan. XVIII asr o'rtalariga kelib Yevropa mamlakatlarda restavratsiya va konservatsiya ishlariga jiddiy e'tibor berila boshlangan. Tez orada tasviriy va amaliy san'at asarlarini restavratsiya qilish bo'yicha turli xil uslublar ishlab chiqila boshlangan. Turli mamlakatlardagi mutaxassislar bir-birlari bilan tajriba almashib turganlar. Restavratorlar asarlarga turli xildagi omillar ta'sir qilishi mumkin ekanligini tushunib yetganlar. Masalan, harorat-namlikning keskin o'zgarishi, kimyoviy, fizikaviy ta'sirning asoratini, biologik zararkunandalarning shikast yetkazishi mumkinligini kuzatganlar. 1764-yilda Ermitajda suratlar galereyasi tashkil etilgan. Undan oldin esa asarlarning yaxshi saqlanishi uchun saqlovchi restavrator Grotga yordamchilik lavozimiga gollandiyalik saroy rang-tasvирchisi Luka Konrad Pfandtselt taklif etilgan. U ko'pincha tasviriy san'at asarlarni moybo'yoqli qismini boshqa asosga ko'chirish bilan shug'ullangan. 1797-yildan boshlab esa galereyani Frans Ivanovich Labenskiy boshqargan U Ermitajda, Rossiyada birinchi restavratorlar maktabi va ustaxonasini ochgan. Vaqt o'tishi bilan bu yerda restavratorlikka shogirdlar olina boshlangan. Ularga A. F.

Mitroxin boshchilik qilgan. Bo‘lajak restavratorlar bir vaqtning o‘zida ham texnik, ham rangtasvir restavratsiyasini o‘rganganlar. XIX asr o‘rtalariga qadar ustaxonada to‘rtdan yetti restavratorgacha ishlaganlar. Ular minglab kartinalarni asl holiga keltirganlar . Ular uzoq vaqtli kuzatuvlari va amaliyotlari asosida malakalarini oshirib borganlar. Lekin restavratsiyada qo‘llanilgan uslublarning hammasi ham sifatli emas edi. Chunki u davrda restavratorlik sohasi yaxshi rivojlanmagan edi. Eskirish jarayonlari, bo‘yoqlarning kimyoviy va fizikaviy xususiyatlarini restavratorlar yaxshi bilishsa-da, saqlash uslubi umuman mavjud bo‘lmagan. Shamning yog‘li tomchilari, kir, chang, bularning hammasi asarlarning ustiga o‘rnashib qolgan. Bu darajadagi yana bir achinarli hol shundaki, tasviriy san’at asarlarining badiiy qimmati yuqori ekanligini anglagan ko‘p hunarmand-ustalar ba’zi restavratsiya uslublarni sir saqlashgan. Olimlarning fikricha, Rossiyada o‘sha davrlarda restavratorlarning kam sonli va yuqori malakali bo‘lganligi katta foyda keltirgan. Yevropada ularning soni ko‘p bo‘lgan, lekin yetarli darajada bilimlari bo‘lmaganligidan kartinalarni chala restavratsiya qilishlari natijasida yong‘in va boshqa turdagidan ham ko‘proq asarlarning nobud bo‘lishiga sababchi bo‘lishgan. Tasviriy san’at asarlarini restavratsiyalash eng murakkab va nozik ish hisoblangan. Rossiya Badiiy Akademiyasida XVIII asrning 80-yillaridan rassom Semyon Shedrin restavratsiyalash san’atini boshlab bergan. XIX asr boshlarida mashhur rus realist rassomi Ilya Repinning “Ivan Grozniy o‘g‘lini o‘ldirmoqda” asari shikastlanganda biror restavratorchi ustaning qo‘lidan kelmagan, rassomning o‘zini taklif etishgan. Ilya Repin asarlarini asliga keltirgan. Uning mahorati hammani hayratga soladi. Shu kezlarda Sankt-Peterburg va Moskvada ham restavratsiyalash ustaxonalari mavjud edi. XX asrning boshlarida restavratorlik ishlari mukammallasha boshlaydi. Bu soha bo‘yicha adabiyotlar chop etilishi yo‘lga qo‘yiladi. Bugungi kunda Parijdagi «Luvr», Berlindagi «Fridrix», Myunxen, Boston muzeylarida, Rossiyaning «Tretyakov», Sankt-Peterburgdagi «Arxeologik texnologiya»lar instituti qoshidagi restavratsiya va konservatsiya labaratoriyalari asarlarni saqlash va restavratsiyalash ishlari bilan shug‘ullanadilar . O‘zbekistonda tasviriy san’at asarları konservatsiyasi va restavratsiyasi borasidagi ilk tajribaviy laboratoriya O‘zbekiston Davlat San’at muzeyida tashkil etilgan. 1935-yili Fayz Voisov rahbarligida muzeyga O‘zbekiston Davlat San’at muzeyi nomi berilgan . Shu yildan boshlab muzeyda restavratsiyalash ustaxonasi tashkil qilingan. Muzeyning restavrator rassomi N. Nedoroshova o‘sha yillari 216ta kartinani restavratsiya qiladi. Restavratsiyalangan asarlar orasidan K. Bryullovning «Italiyalik ayollar quduq bo‘yida», Levitskiyning «Yekaterina II portreti», K. Makovskiyning «Katolik va va’zon», A. Kramskoyning «Kampir portreti», S. Yudinning «Tog‘dagi choyxona», V. Vereshaginning «Chaldaxo‘rlar», A. Volkovning «Tuya karvon qo‘nqirog‘i», fransuz rassomi Adam Fandor Meyinning «Kirol Lyudovik ot ustida» va boshqalar bor edi. Muzeyning yana bir ta’rifida rassom P. S. Protelutskaya qisqa vaqt ichida 24 portretni o‘z asliga keltirdi. Bular orasida iste’dodli rassom O. Tatevosyanning 1929-yilda yaratgan «Ayol portreti», «Kolxozi raisi portreti» asarlari bor edi . Shamsro‘y Xasanova (1917-1656) ham muzeyni o‘n yil davomida boshqarib, ancha ibratlari ishlarni amalga oshirdi. Bu davrlarda ham restavratsiya va konservatsiya ishlari ko‘p e’tibor berilib, ibratlari ishlarni amalga oshirilgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, O‘zbekiston davlat san’at muzeyi restavratsiya laboratoriysi muzey tashkil topgandan buyon faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bu muzeyda birinchi bor 1 kategoriyali restavrator rassom sifatida Abdulla Yuldashev faoliyat ko‘rsatgan. O‘zbekiston Davlat San’at muzeyining rassomi, “Xalqlar do‘stligi” ordeni sovrindori A. Yo‘ldoshev (1919-1992) yarim asr rangtasvir asarlarini ta’mirlashda ibratlari ishlarni amalga oshirdi . Toshkent badiiy bilim yurti va Moskvadagi I. E. Grabar nomidagi bilim yurtida ta’mirlash sirlarini egalladi. Mingdan ortiq jahon rassomlari asarlarini asli holiga keltirib, el-yurt hurmatiga sazovor bo‘ldi. Restavratorlik san’atiga oid ayrim ilmiy ishlari ommalashib ketgan. Ustoz san’atni, o‘z kasbini ardoqlovchi insonlardan edi. Doim san’atdan, uning sirlaridan berilib gapirar, shu bilan orom olar va boshqalarini ham ajoyib suhbatlari bilan quvontirib yurardi. O‘zbekiston Davlat san’ati muzeyida Abdulla Yo‘ldoshev tomonidan o‘z asl holiga qaytarilib, restavratsiya qilingan asarlar tomoshabinga zavq bag‘ishlab kelmoqda. A.Yo‘ldoshev ta’mirlash, restavratsiya ishlarning sir-sinoatlarini o‘z shogirdlariga o‘rgatib, bir nechalariga ustozlik qildi. Restavratsiya san’at asarlarini yanada hayotga qaytarishda, asarlarga yanada joziba kiritadi. Bu ishlarda Abdulla

Yo'ldoshevning xizmatlari katta . A. Yo'ldoshev 1919-yil Toshkent shahrida tug'ilib, o'rta maktabdan so'ng, 1949-yili Toshkent badiiy bilim yurtini tugatib, 1950-yildan O'zbekiston Davlat san'ati muzeyida ishlay boshlagan. U muzeyda ko'p yillar ishlab, jahon madaniyati va rassomlar ijodi bilan yaqindan tanishdi.

1966-yili Toshkentda tabiiy ofat sodir bo'lgan vaqtida u Teatr va rassomlik san'ati institutining uchinchi kurs talabasi edi. Yer silkinishidan bino shikastlangani uchun muzeyning qirq mingga yaqin ashyolari, asarlari Do'rmon qishlog'idagi madaniyat saroyiga ko'chirildi. Bu paytda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Samig' Abdullayev muzeyga rahbarlik qilar edi. Muzeyda restavratsiya ishlari shunchalik ko'payib ketdiki, nafaqat rang-tasvir balki, amaliy san'at asarlari ham restavratsiyaga muhtoj edi. Barcha san'at asarlari o'z holatiga qaytarilib restavratsiya qilinib, xalq boyligiga aylantirib e'zozlab boshlandi . Muzey rahbariyati tomonidan A. Yo'ldoshev Moskvadagi Markaziy Davlat badiiy asarlarni ta'mirlash ustaxonasiga yuboriladi. U manzarachi rassom bo'lsa-da, o'z oldiga restavratorlik kasbini mukammal o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. Ustaxonaga mashhur rus akademik rassomi va restavrator usta I. E. Grabar rahbarlik qilar edi. A. Yo'ldoshev qunt bilan shu kasbni o'rganadi. I. Grabar yuzakilikka yo'l qo'ymaslikni, ishni puxta bajarishni talab qilar edi. Lekin afsuski, bu uzuksiz o'qish emas, har yili 3 oy kelib o'qiladigan joy edi. Shunday bo'lsa-da, rassom bu kasbga mehr qo'yib, jiddiy yondashgani uchun restavratsiya sirlarini mukammal o'zlashtira boshladi. O'zbekiston Davlat san'at muzeyidagi ko'plab tasviriy san'at asarlarini muvaffaqiyatlrestavratsiya qildi . U grunt tayyorlashga, shikastlangan joylarni tezlikda qanday xarakterga ega ekanligini aniqlashga usta edi. Restavratsiya jarayonida nihoyatda katta e'tibor bilan ish olib borgan. Bundan tashqari u muzeydagi barcha tasviriy san'at asarlarini sinchkovlik bilan tekshirib yurib, nuqsonli kartinalarni tezlikda laboratoriya geltirish ishlari bilan ham shug'ullangan. Rassom "Rangtasvir asarlarini saqlash va ta'mirlash" mavzusida tomoshabinlarga qiziqarli ma'ruzalar ham qilib turgan. Uning ma'ruzasi nihoyatda qiziqarli o'tar edi. Shikastlangan asar ne mashaqqatlar bilan restavratsiya qilinishini bilgan tomoshabinlar muzey asarlariga avvalgidan ijobiyroq munosabatda bo'lar edilar. A. Yo'ldoshev faqat restavratsiya va ma'ruza o'qish ishlari bilan chegaralanibgina qolmay, muzeydan vaqtinchalik ko'rgazmaga olib ketiladigan asarlarni transportda tashishga ham tayyorlar edi. Ko'rgazmalarda kartinalarga shikast yetmasligi uchun olib boriladigan joydagi sharoitni ham o'rganib kelar edi. Shundan keyingina jo'natishga ruxsat berar edi. A. Yo'ldoshevning eng jiddiy ishlaridan biri "Cho'milayotgan ayol" kartinasining restavratsiyasi edi. Asar muzey yangi binoga ko'chirilganda shikastlanadi. Direktor hamda muzey ilmiy xodimlari uni qayerda restavratsiya qildirishni uzoq o'ylaydilar. Asarni Moskvaga yuborish masalasi ko'tarilganda, muzey ilmiy xodimlaridan biri bunga qarshilik ko'rsatadi. Moskvadagilar bu asarni ko'pdan buyon direktordan ko'rgazmaga berib turishlarini so'rayotganini, ularga ish berib yuborilsa, qaytarib bermasliklarini ta'kidlaydi. (Muzeyning eng nodir asarlaridan biri hisoblangan "Madam Shoke" asari ham Moskvaga ko'rgazmaga olib ketilib, qaytarib berilmagan. Muzey rahbariyati bir necha marotaba bu asarni qaytarib berishlarini talab qilgan. Xatlarga javob kelmagan va kartina o'sha yerda qolib ketgan). Natijada asarni muzeyda restavratsiya qilishga qaror qilinadi. A. Yo'ldoshevga bu ishda muzey direktori Samig' Abdullayev ham yaqindan yordam beradi va ish muvaffaqiyatl yakunlanadi . Shunday murakkab ishlar qatoriga Abdulxaq Abdullayevning jiddiy shikastlangan "Avtoportret Sambrero qiyofasida" asarini ham kiritish mumkin. A. Yo'ldoshev bu kartinani juda sinchiklab tekshirganidan so'nggina restavratsiya ishini boshlaydi va uzoq vaqt mobaynida shikastlangan joyini avvalgi qiyofasiga keltirib, uch oydan so'ng ekspozitsiyaga qaytaradi. A. Yo'ldoshev ta'mir ishlari jarayonida jiddiy kashfiyot ham qilishga muvaffaq bo'ldi. U 1966-yilda Niderlandiya rassomi Frans Paubyusning "Erkak kishi" kartinasini restavratsiya qilish jarayonida, tagida boshqa portret borligini aniqlaydi . Ustki qatlamini olib tashlash uchun ishlatilgan kimyoviy suyuqliklar faqat ustki qatlamdagasi asarning bo'yoqlariga ta'sir qiladi. Tagidagi asar nihoyatda sifatli bo'yoqlar bilan ishlanganligi uchun suyuqliklar bu qatlamga shikast yetkazmaydi. Yuqori tashkilotlardagi mutaxassislar murojaat qilinganda mazkur asar XVII asr Ispan rassomi Xuan Pantoxa de la Krus qalamiga mansub Filipp III portreti ekanligi ma'lum bo'ladi. A. Yo'ldoshev juda tajribali restavratorlardan biri bo'lib, o'zidan keyin ko'p shogirdlar

qoldirdi. Restavratorlar san'at sirlarini yaxshi biladilar, go'zallikni sevadilar va nihoyatda qadrlaydilar. Yaxshi tasvir ustasi, yaxshi restvrator ta'mir ustasi ham bo'lishi hayotda ko'rilgan. Xalqimizning iste'dodli mussavviri Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhab, Muhammad Samarqandiy, Ahmad Donish o'z asarlarini o'zlari restavratsiya qilganlar, ularning izidan borgan zamondosh musavvirimiz Chingiz Ahmarov ham umrlarining oxirigacha birorta ishlarini ta'mirlash ustaxonasiga olib bormay, o'zlari restavratsiya qilgan.

O'zbekiston rassomlaridan Bahrom Hamdamiy, Siddiqiy, Xakim Ortiqov, Hikmat Rahmonov va boshqalar ham shikastlangan asarlarini o'zlari ta'mirlashgan. Muzeyga 1956-1988-yillarda rahbarlik qilgan qahramon rassom Samig' Fayzulovich Abdullayev ham bu dargohida munosib xizmat qildi. Shu davr mobaynida S. F. Abdullayev rahbarlik qilganida, muzey ishlari ancha yaxshilandi. Yangi muzey binosi qurilib, zamonaviy ko'rinishga ega bo'ldi. Bu davrdagi izlanishlar tasviriy san'at asarlarining uslubiy belgilari obyekt yaratilgan davr, maktab, asllilik yoki nusha olinganlik, ma'lum bir hollarda mualliflikni tasdiqlashga izn berdi. Mazkur masalalarni oxirigacha yechish uchun texnologik tadqiqotlar ham olib borildi. Tekshirishning texnologik turi ximiyaviy o'rganishni, uslub tahlili, rentgenografik tekshirishni, ultrabinafsha va infraqizil nurlanishni, mikroskopik tadqiq etishni o'z ichiga oladi. Aynan ushbu jarayonlar asosida restavratsiya qilingan asarlarning maxsus ilmiy pasportlari yaratildi. Bugungi kunda ushbu restavratsiya maktabi asosida rangtasvir asarlarining konservatsiyasi ham yo'lga qo'yilgan.

### **Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Кудрявцев Е.В., Лужецкая А.Н. Основы техники консервации картин. М.: Искусство, 1987. – 119 с.
2. Алешин А.Б. Реставрация станковой масляной живописи в России. Л.: Художник РСФСР, 1989. – С.32.
3. Ўзбекистон санъати музейи: йўлкўрсатгич. Н.К.Азизова, С.М.Круковская. – Тошкент: Ўзбекистон. – 1965. Б.16 .
4. Ахмедов М.:Таъмир устаси. Тошкент: Маънавият. 2005 – Б.6-8.
5. Абдуллаев С.Ф. Экспозиция советского искусства в новом здании ГМИ УЗ ССР // Проблемы комплектования и экспонирования произведений советского изобразительного искусства в художественных музеях. – М.: 1978. – С.118-126.
6. Абдуллаев С.Ф. Экспозиция советского искусства в новом здании ГМИ УЗ ССР // Проблемы комплектования и экспонирования произведений советского изобразительного искусства в художественных музеях. – М.: 1978. – С.120.
7. Ахмедов М.. Таъмир устаси. Тошкент: Маънавият. 2005 – Б.10.
8. Круковская С.М. В мире сокровищ – Ташкент: 1982. – С.45.
9. Ўзбекистон санъати музейи: йўлкўрсатгич. Н.К.Азизова, С.М.Круковская. – Тошкент: Ўзбекистон. – 1965. Б.23.
10. Max Friendlander. On art and connoisseurship. Boston. Beacon PRESS. 2013. –P. 123.